

## KINOFILMLARDAN FOYDALANISHNING DARS SAMARADORLIGIGA TA’SIRI: TAJIRIBA-SINOV ISHLARI VA METODIK TAVSIYALAR

Sunatova Ruxsora Akbar qizi

Termiz davlat pedagogika instituti tarix tal’im yo’nalishi 4-bosqich talabasi,

e-mail:ruxsora@gmail.com.tel.:+998907202804

Vaxidova Nozikoy Choriyevna

Ilmiy rahbar -Termiz davlat pedagogika instituti o’qituvchisi,

e-mail:nozik899@gmail.com. tel.: +998919660255

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20565583>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kinofilmlardan ta’lim jarayonida foydalanishning dars samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tajriba-sinov ishlari o’tkazilib, kinofilmlar asosida tashkil etilgan darslarning o’quvchilarning bilim olish faolligi, mavzuni tushunish darajasi va mustaqil fikrlash ko’nikmalariga ijobiy ta’siri aniqlangan. Shuningdek, kinofilmlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish usullari hamda o’qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari kinofilmlarning ta’lim sifatini oshirishda samarali vosita ekanligini ko’rsatadi.

**Kalit so’zlar:** kinofilm, ta’lim jarayoni, dars samaradorligi, tajriba-sinov ishlari, pedagogik texnologiyalar, metodik tavsiyalar, o’quv faolligi, innovatsion ta’lim.

Tarix darslarida kinofilmlardan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish jarayonida ushbu yondashuvning dars samaradorligiga ta’sirini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqot davomida o’quvchilarning mavzuni o’zlashtirish darajasi, darsdagi faolligi va tarixiy tafakkurining rivojlanishi qiyosiy tahlil qilindi.

1. Tajriba-sinov natijalarining qiyosiy tahlili. Tajriba ishlari natijasida kinofilm qo’llanilgan darslar va an’anaviy darslar o’rtasidagi farq quyidagi ko’rsatkichlarda namoyon bo’ldi: O’zlashtirish ko’rsatkichi: An’anaviy dars o’tilgan guruhlarda o’quvchilar asosan faktik ma’lumotlarni (sana, ism) eslab qolishgan bo’lsa, kinomateriallar qo’llanilgan guruhlarda o’quvchilar voqealarning mohiyatini, sabab va oqibatlarini tahlil qilishda yuqori natija ko’rsatdilar. (O’rtacha o’zlashtirish darajasi tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 18-22% ga yuqori bo’ldi ).<sup>1</sup>

Kinolavhalardan foydalanish o’quvchilarning diqqatini dars mavzusiga jalb etish, ularning qiziqishini oshirish va tarixiy voqealarni yanada chuqurroq anglashiga xizmat qildi. Film namoyishi jarayonida o’quvchilar mavzuga emotsional jihatdan faol jalb qilinib, darsdagi ishtiroki sezilarli darajada oshdi. Shuningdek, “Tarixiy xatolarni top” kabi interfaol metodlardan foydalanish o’quvchilar o’rtasida sog’lom bahs-munozara muhitini shakllantirdi, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o’z nuqtai nazarini asoslab berish ko’nikmalarini rivojlantirdi.

Vaqtdan unumli foydalanish. O’qituvchi tomonidan uzoq vaqt tushuntirilishi talab etiladigan murakkab jarayonlar (jang san’ati, davrning kiyinish va yashash madaniyati) 3-5 daqiqalik videolavha orqali aniq va tushunarli qilib yetkazildi.

Kinofilmlardan tarix darslarida tizimli va maqsadli foydalanish bir qator pedagogik natijalarga erishish imkonini beradi. Avvalo, o’quvchilarda tarixiy empatiya shakllanadi, ya’ni ular tarixiy shaxslar va voqealarni vizual obrazlar orqali kuzatib, ularning qarorlari, faoliyati hamda xatti-harakatlari ortida yotgan sabab va omillarni chuqurroq anglay boshlaydilar. Shuningdek, badiiy talqin bilan tarixiy faktlarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida o’quvchilarning tanqidiy tafakkuri rivojlanadi. Natijada ular turli axborotlarni tahlil qilish, tarixiy haqiqatni badiiy tasvirdan

<sup>1</sup> Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye tekhnologii. – M.: Narodnoe obrazovanie, 1998. – B.214.

farqlash, ma'lumotlarga xolis baho berish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa tarix fanini o'zlashtirish sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarning analitik fikrlash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Vatanparvarlik tarbiyasi: Milliy qahramonlar haqidagi filmlar (masalan, "Jaloliddin Manguberdi", "Amir Temur") o'quvchilarda milliy g'urur va tariximizga nisbatan hurmat tuyg'usini vizual kuch bilan muhrlaydi.

O'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar - tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tarix o'qituvchilariga kinofilmlardan foydalanish bo'yicha quyidagi tavsiyalar taklif etiladi: Vaqt reglamentiga amal qilish: Dars davomida ko'rsatiladigan lavha 5-7 daqiqadan oshmasligi lozim. Uzun lavhalar o'quvchining charchashiga va asosiy mavzudan chalg'ishiga sabab bo'ladi.

Ko'rsatishdan oldingi vazifa - O'quvchilarga lavhani shunchaki tomosha qilish emas, balki aniq savollarga javob izlash vazifasi yuklanishi shart (masalan: "Lavhadagi qurollarga e'tibor bering, ular darslikdagi tavsifga mosmi?").

Stop-kadr texnikasi: Eng muhim tarixiy detallar (libos naqshlari, qurol turlari, arxitektura) ko'ringanda videoni to'xtatib, o'quvchilar diqqatini ushbu jihatga qaratish lozim.

Xronologik izchillik - Tanlangan lavha dars mavzusiga va yoritilayotgan davrga to'liq mos kelishi, o'quvchida xronologik chalkashlik yuzaga keltirmasligi shart. (Tarix darslarida kinofilmlardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi).<sup>2</sup> Buni tasdiqlash maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida o'quvchilarning tarixiy bilimlari, tahliliy fikrlash qobiliyati va manbalarni o'rganish ko'nikmalari kinofilmlar orqali sinovdan o'tkazildi.

Tajriba-sinov ishlari tahlili - tajribada 9–11-sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Darslar an'anaviy metodlar bilan va kinofilmlar yordamida olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki: Bilim darajasi oshdi – kinofilm orqali vizual va dramatik tarzda tarixiy voqealarni ko'rgan o'quvchilarning faktlarni eslab qolishi va voqelikni tushunishi sezilarli darajada yaxshilandi.

Tahliliy ko'nikmalar rivojlandi – kinofilmlarda yuzaga kelgan tarixiy tafvutlar va voqealarni tahlil qilish orqali o'quvchilar o'z fikrini asoslashni o'rgandilar. Qiziqish va faollik oshdi – dars davomida interfaol metodlar (muammoli vaziyatlar, "Tarixiy xatolarni top" va "Kino-tadqiqot" usullari) qo'llanishi o'quvchilarning darsga jalb qilinishini kuchaytirdi. (Eshitish va ko'rish orqali o'rganish samarasi – kinofilmlar vizual, audio va dramatik elementlarni birlashtirishi tufayli ma'lumotni ko'proq eslab qolishga yordam berdi).<sup>3</sup>

Metodik tavsiyalar - tajriba natijalariga asoslanib, quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi: Kinofilmlarni dars rejasi bilan uyg'unlashtirish – film mavzuga mos kelishi va darsning maqsad va vazifalariga xizmat qilishi zarur. Interfaol metodlarni qo'llash – filmni namoyish etishdan oldin va keyin savol-javob, muhokama, "Tarixiy xatolarni top" kabi faoliyatlar bilan boyitish. Filmning qismlarga bo'linishi – uzun metrajli kinofilmlarni bosqichma-bosqich ko'rsatish, har bir sahnani tahlil qilish va o'quvchilarni bahslashishga jalb qilish. Manba bilan taqqoslash – filmda ko'rsatilgan voqealarni tarixiy manbalar bilan solishtirish orqali fakt va badiiy talqin o'rtasidagi tafvutni tushuntirish. Qisqa ijodiy vazifalar berish – o'quvchilardan film asosida qisqa insho, prezentatsiya yoki dramatik sahna tayyorlashni so'rash. Taqdimot va mulohaza – dars yakunida o'quvchilarning fikrlarini tinglash, tarixiy voqealarni vizual tarzda qayta ifodalash imkonini berish. Tarix darslarida kinofilmlardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Kinofilmlar o'quvchilarni vizual va hissiy jihatdan jalb qiladi, tarixiy voqealarni tezroq tushunishga yordam beradi, tahliliy fikrlash va interfaol faoliyatni rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, "Amir

<sup>2</sup> Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2016. – B.132.)

<sup>3</sup> Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B.96.

Temur", "Mendirman Jaloliddin" va "Sen Yetim Emasssan" filmlari tarixiy ta'lim jarayonida keng qo'llanilishi mumkin.

1. "Amir Temur" filmi - bu badiiy film Temuriylar imperiyasining shakllanishi, Amir Temur shaxsiyati, siyosiy va harbiy faoliyati, davlat boshqaruvi va tashqi siyosatiga qaratilgan. Darsda qo'llash: O'quvchilar Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimni vizual tarzda ko'rishadi. Filmidagi jang sahnalari va strategik qarorlar orqali harbiy harakatlarni tahlil qilish, voqealar va ularning natijalarini muhokama qilish mumkin. "Kino-tadqiqot" metodi orqali film sahnalari tarixiy manbalar bilan solishtiriladi. Masalan, Temuriylar yurishlaridagi harbiy taktikalar va tarixiy faktlar. Amaliy natija: O'quvchilar tarixiy voqealarni yaxshiroq eslab qoladi, Temur shaxsiyatini va davr siyosatini chuqurroq tushunadi.

2. "Mendirman Jaloliddin" filmi. Film Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati, Xorazmshohlik va Mo'g'ul istilosi davridagi qarama-qarshiliklarni aks ettiradi. Darsda qo'llash: Film orqali o'quvchilar XIV asr Xorazm tarixini, hududiy siyosat va xalqaro aloqalarni o'rganadilar. "Tarixiy xatolarni top" metodi yordamida film sahnalari va tarixiy manbalar solishtiriladi, filmning badiiy talqinini aniqlash mumkin. Film voqealarida strategik va ijtimoiy qarorlar tahlil qilinadi, masalan, Jaloliddinning shaharlarni mudofaa qilish usullari va xalqni safarbar qilish jarayonlari. Amaliy natija- o'quvchilar voqealarni tarixiy kontekstda baholashni, shuningdek, liderlik va strategik fikrlashni o'rganadi.

3. "Sen Yetim Emasssan" filmi. Film XIX asr oxiri - XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, o'quvchilarni insoniy qadriyatlar va milliy identitet masalalari bilan tanishtiradi. Darsda qo'llash: Film orqali yoshlar o'tmishdagi ijtimoiy muammolar, oilaviy va jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni vizual tarzda ko'rishadi. "Kadr ortidagi tarix" metodi yordamida film sahnalari orqali tarixiy va madaniy kontekstni tahlil qilish mumkin. Film orqali o'quvchilar ijtimoiy tarixni his etadi, milliy qadriyatlarni tushunadi, tarixiy tafovut va o'quv materiallarini bog'laydi. Amaliy natija - o'quvchilarda tarixiy voqealarni insoniy, hissiy va madaniy jihatdan anglash qobiliyati shakllanadi.

Tajriba-sinov ishlari tahlili - tajriba 9-11-sinf o'quvchilari bilan o'tkazildi. Darslar kinofilmlar orqali olib borilganda: Bilim darajasi oshdi - o'quvchilar film asosida tarixiy voqealarni eslab qoldi. Tahliliy ko'nikmalar rivojlandi - o'quvchilar film sahnalarini tarixiy faktlar bilan solishtirdi. Faollik oshdi - interfaol metodlar yordamida filmni muhokama qilishda o'quvchilar faol ishtirok etdi.

Metodik tavsiyalar - filmlarni mavzuga mos tanlash: har bir film dars maqsadiga xizmat qilishi kerak. Interfaol metodlarni qo'llash: "Kino-tadqiqot", "Tarixiy xatolarni top", "Kadr ortidagi tarix". Film qismlarini sahnalarga bo'lib muhokama qilish. Film sahnalarini tarixiy manbalar bilan solishtirish. Ijodiy vazifalar: film asosida prezentatsiya, insho yoki dramatik sahna tayyorlash. Dars yakunida o'quvchilarning fikrini tinglash va mulohaza yuritish. Amir Temur, Mendirman Jaloliddin va Sen Yetim Emasssan kinolaridan foydalanish dars samaradorligini sezilarli oshiradi. Bu filmlar o'quvchilarni tarixiy tafakkur, tahliliy fikrlash va interfaol o'rganishga jalb qiladi. To'g'ri metodik vositalar bilan uyg'unlashtirilgan kinofilmlar darsni qiziqarli, mazmunli va ta'limiy jihatdan boy qiladi.

Tarix darslarida turli janr va davrlarga oid kinomateriallardan foydalanishning samaradorligini aniqlash maqsadida olib borilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, tanlangan filmning mazmuni o'quvchilarning mavzuga oid turli kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida bir qator tarixiy filmlarning dars samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

4. "Ulug'bek yulduzi" va "Ibn Sino" filmlari - ilmiy merosni vizuallashtirish. Ushbu filmlardan lavhalar namoyish etilgan darslarda o'quvchilarning "O'rta asrlarda ilm-fan va madaniyat"

mavzusini o'zlashtirish darajasi 20-25% ga oshganligi kuzatildi. Samaradorlik: O'quvchilar uchun faqat darslikdagi quruq fakt bo'lib ko'ringan observatoriya (rasadxona) yoki qadimiy tibbiy muolaja jarayonlari kinoda vizual gavdalanishi natijasida, ularda o'rta asrlar sivilizatsiyasining qudrati haqida yaxlit tasavvur paydo bo'ldi. Natija - o'quvchilarning nazariy bilimlari "obrazli xotira"ga aylandi, bu esa ma'lumotlarning uzoq muddat saqlanishini ta'minladi.

2. "Olovli yo'llar" Ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar tahlili - XIX asr oxiri va XX asr boshidagi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni (jadidchilik harakati, inqilobiy o'zgarishlar) tushuntirishda ushbu filmlar muhim rol o'ynadi. Tahlil - tajriba guruhida o'quvchilar jadidlar va eski tuzum vakillari o'rtasidagi g'oyaviy ziddiyatlarni filmlardagi dialoglar orqali tahlil qildilar. Bu jarayon an'anaviy darsga qaraganda o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni tezroq shakllantirdi. Nazorat guruhida o'quvchilar jadidchilikni "islohotlar harakati" deb yodlagan bo'lsalar, tajriba guruhida ular bu harakatning ijtimoiy dramasi va fojiasini his qildilar.

3. "Shaytanat" (tarixiy qismlari) va boshqa zamonaviy seriallar - davr ruhini tiklash. Zamonaviy tarixiy seriallardagi kadrlar orqali o'tgan asrning 40-50 yillari ijtimoiy muhiti, odamlarning kiyinishi va muomala madaniyati o'rganildi. Bu o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qildi. Tajriba-sinov natijalarining qiyosiy ko'rsatkichlari. O'tkazilgan darslar yakunida o'quvchilarning bilim darajasi quyidagi 3 ta asosiy mezon bo'yicha o'sdi:

Faktologik aniqlik (Sana va ismlar): Kinofilm qo'llanilgan darsda o'quvchilar voqealar ketma-ketligini film syujeti bilan bog'lagan holda 15% aniqroq eslab qolishdi. Tahliliy qobiliyat: Filmda ko'rsatilgan voqea va darslikdagi matnni qiyoslash natijasida o'quvchilarning mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasi 30% ga yaxshilandi. Emotsional bog'liqlik - milliy tarixiy qahramonlar (masalan, Ibn Sino yoki Mirzo Ulug'bek) siymosiga bo'lgan hurmat va fanga qiziqish ko'rsatkichi sezilarli darajada yuksaldi.

O'qituvchi darsda turli janrdagi filmlardan foydalanganda quyidagi metodik filtrlarga tayanishi lozim - Biografik filmlarda ("Ibn Sino", "Beruniy"): Asosiy e'tiborni shaxsning shakllanishi va uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasiga qarating. Harbiy-tarixiy filmlarda ("Manguberdi", "Temurmaliq") - Strategik tafakkur, harbiy hiyla va vatanparvarlik elementlarini tahlil qiling. Ijtimoiy dramalarda ("Olovli yo'llar") - G'oyalar kurashi, xalqning turmush tarzi va o'sha davrdagi tabaqalanishni ko'rsating. Tarix darslarida kinofilmlardan foydalanish o'quvchilarda tarixiy voqealarni vizual tarzda his qilish, voqea ketma-ketligini anglash va muhim tarixiy shaxslar, hodisalar hamda madaniyat bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. (Vizuallashtirish tamoyili va media-texnologiyalarning pedagogik ahamiyati shundaki, ular mavzuni osonroq tushunishga yordam berib, o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi).<sup>4</sup>

Kinofilmlar yordamida mavzu yanada jonli va esda qolarli bo'lib, tarixiy manbalarni o'rganish jarayoni qiziqarli va interfaol bo'ladi.

Tarixiy kinofilmlar bir necha turga bo'linadi - hujjatli, badiiy va ilmiy-ommabop filmlar. Hujjatli filmlar tarixiy faktlarni aniq tasvirlaydi, arxiv va manbalarga asoslanadi, darslarda tarixiy voqealarni ishonchli manba sifatida ko'rsatadi. Badiiy filmlar esa tarixiy shaxslar va voqealarni dramatik, badiiy uslubda ifodalaydi, o'quvchilarda hissiy taassurot uyg'otadi va mavzuga chuqurroq qiziqish hosil qiladi. Ilmiy-ommabop filmlar esa keng auditoriya uchun mo'ljallangan bo'lib, tarixiy voqealarni sodda, tushunarli va ommaviy formatda taqdim etadi.

<sup>4</sup> Begimqulov U. Pedagogik ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish. – Toshkent: Fan, 2007. – B.58.

Filmlarni o'quv manbasi sifatida tanlashda tarixiy haqiqat va badiiy to'qima muammosi hisobga olinishi kerak. Masalan, Amir Temur filmi orqali Temuriylar davrining siyosiy va harbiy jihatlarini, Mendirman Jaloliddin filmida mudofaa strategiyalari va xalqaro siyosiy vaziyatni, Sen Yetim Emasssan filmida esa XIX asr oxiri – XX asr boshidagi ijtimoiy muammolarni tushuntirish mumkin. Shu bilan birga, filmlardagi badiiy tafovutlar, dramatik o'zgarishlar va sahna dekoratsiyalari tanqidiy tahlil qilinishi lozim, chunki ular o'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kinofilmlarni darslarda qo'llash o'quvchilarning vizual xotirasini mustahkamlash, tafakkur va analitik qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Ular film sahnalarini tarixiy manbalar bilan solishtiradi, tarixiy voqealarning sabab-oqibat aloqalarini tahlil qiladi va mavzuni chuqurroq anglaydi. Shu tariqa, tarixiy kinofilmlardan foydalanish nafaqat ma'lumot yetkazish vositasi, balki o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, interfaol va ijodiy faoliyatni rag'batlantirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, tarixiy kinofilmlar o'quv jarayonida nafaqat ma'lumot yetkazuvchi vosita, balki tarixiy tafakkur va analitik qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali resursidir. Kinofilmlar o'quvchilarda tarixiy voqealarni vizual va hissiy tarzda idrok etishga imkon yaratadi, voqealar ketma-ketligi, sabab-oqibat aloqalari va tarixiy shaxslarning faoliyatini yaxlit qamrab olish imkonini beradi.

Hujjatli kinofilmlar tarixiy haqiqatni iloji boricha aniqlik bilan taqdim etadi, ularning arxiv ma'lumotlari, tarixiy manbalar va faktlar bilan boyitilganligi o'quvchilarga ishonchli va ilmiy asoslangan bilimlarni beradi. Shu bilan birga, badiiy filmlar tarixiy voqealarga dramatik yondashuvni qo'llab, o'quvchilarda hissiy tajriba hosil qiladi va tarixiy shaxslarning ruhiy-axloqiy qarorlarini tushunishga yordam beradi. Ilmiy-ommabop filmlar esa murakkab tarixiy mavzularni sodda, tushunarli va keng auditoriya uchun yetkazish imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi. Kinofilmlardan samarali foydalanish uchun tarixiy haqiqat bilan badiiy tafovutni aniqlash va tanqidiy tahlil qilish muhimdir. Masalan, “Amir Temur” filmi orqali Temuriylar davrining harbiy, siyosiy va diplomatik jihatlarini, “Mendirman Jaloliddin” filmida mudofaa strategiyalari va xalqaro siyosiy vaziyat, “Sen Yetim Emasssan” filmida esa XIX asr oxiri – XX asr boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil qilinishi mumkin. Shu tarzda o'quvchilar film sahnalarini tarixiy manbalar bilan solishtirib, fakt va badiiy tasvir o'rtasidagi farqni anglashni o'rganadilar.

Bundan tashqari, kinofilmlardan foydalanish o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish imkonini beradi. Masalan, darsda “Kino-tadqiqot” yoki “Tarixiy xatolarni top” usullarini qo'llash orqali o'quvchilar filmida namoyish etilgan voqealarni tahlil qiladi, tarixiy tafsilotlarni aniqlaydi va o'z fikrini asoslashni o'rganadi. Shu tariqa, kinofilmlar darsning interfaol qismi sifatida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va ilmiy qarashlarini rivojlantiradi.

Umuman olganda, tarixiy kinofilmlar tarix ta'limida faqat vizual material bo'lib qolmay, balki darslarni interfaol, qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiluvchi metodik resursdir. Ular o'quvchilarning tarixiy bilimlarini mustahkamlash, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish va tarixiy hodisalarni chuqur anglashlariga yordam beradi. Shu bois, kinofilmlardan tizimli va maqsadli foydalanish har bir tarix darsining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va o'quvchilarning tarixiy bilim, qiziqish va ijodiy salohiyatini kengaytiradi.

Olib borilgan tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlari natijalari tarix ta'limida kinofilmlardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim metodik vosita ekanligini tasdiqladi. Kinofilmlar tarixiy voqea va jarayonlarni o'quvchilarga obrazli hamda tushunarli tarzda

yetkazib, ularning mavzuga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarda tarixiy tafakkur, tahliliy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va tarixiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov natijalariga ko'ra, tarixiy kinofilmlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning faolligi, darsda ishtiroki va mavzuni o'zlashtirish darajasi an'anaviy darslarga nisbatan yuqori bo'ldi. Ayniqsa, film lavhalarini tarixiy manbalar bilan taqqoslash, tarixiy xatolarni aniqlash hamda muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tarix darslarida kinofilmlardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish maqsadida bir qator takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, tarix fanining mavzulariga mos hujjatli va badiiy kinofilmlar bazasini yaratish hamda ulardan foydalanishga mo'ljallangan metodik tavsiyalar va dars ishlanmalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, film namoyishini interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning dars jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash lozim. Tarixiy filmlarni tahlil qilish jarayonida tarixiy haqiqat va badiiy talqin o'rtasidagi farqlarni aniqlashga alohida e'tibor qaratish, o'quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish orqali tarixiy videomateriallarni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish va ularning amaliy qo'llanish doirasini kengaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, tarix ta'limida kinofilmlardan maqsadli va metodik jihatdan to'g'ri foydalanish o'quvchilarning tarixiy bilimlarini mustahkamlash, ularning tarixiy tafakkurini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirishning samarali omillaridan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye tekhnologii. – M.: Narodnoe obrazovanie, 1998. – B.214.
2. Stradling R. 20-asr Yevropa tarixini o'qitish. – Toshkent: Sharq, 2010. – B.87.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2016. – B.132.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B.96.
5. Begimqulov U. Pedagogik ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish. – Toshkent: Fan, 2007. – B.58.